



XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 3-aprel

VII-6-36-11-151-K/25

Oltiariq tumani

2025-yil 1-chorak yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 81-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2025-yil 1-chorak yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan Oltiariq tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari A.Abdulazizovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

Oltiariq tumani bo'yicha 2025-yil 1-chorak yakuni bo'yicha tashabbusli byudjetlashtirish natijalari yuzasidan ma'lumotlar 1-ilovaga muvofiq;

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi xisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar 2-ilovaga muvofiq;

3. Oltiariq tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Abdulazizov), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Xonkeldiyev) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budjet" axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Q.Axmedov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



TURDALIYEV
SHAMSIDDIN
ASKARALIYEVICH

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2025-yil 3-apreldagi
VII-6-36-11-151-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Oltiariq tumani 2025-yil 1-chorak yakuni bo'yicha tashabbusli byudjetlashtirish natijalari yuzasidan
MA'LUMOT
2025-yil 1-aprel

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (mingso'm)
1.	Yil boshiga qoldiq	1 016 468,1
	<i>Shundan avvalgi mavsumlarda g'olib bo'lgan loyihalar uchun ajratilishi lozim bo'lgan, qayta taqsimlanmagan mablag'</i>	
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'	7 231 633,2
3.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'	
3.1.	<i>Bajarilgan ishlar uchun hisob varaqlardan moliyalashtirilgan mablag'</i>	
3.2.	<i>Hisob varaqlardagi qoldiq</i>	
4.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'	8248101,4

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	Ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	Sarflangan mablag'
Jami		0	X	X	0
1.	Hududiy ichki yo'llar		Umumiy uzunligi		
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va		soni		

	jihozlash				
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		Umumiy uzunligi		
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari		Chiroqlar soni		
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)		Tadbirlar soni		
9.	Boshqa tadbirlar		soni		

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2025-yil 3-apreldagi
VII-6-36-11-151-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Oltiariq tumani bo'yicha Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi xisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida

t/r	Loyihaning xos raqami (ID)	Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi)	Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so'm)					Qoldiq mablag'lar
			Moliyalashtirish uchun ochilgan hisob varaq	Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati	Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati*	Ajratilgan mablag'	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'	
1								0
2								0
3								0
4								0
5								0
Жами:				0	-	-	-	0